



MORPHOMETRIC ANALYSIS OF NOSE INDEX AND DACRYAL INDEX OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Gulrukh Jurayevna Ulugbekova

Associate professor of the Department
of Anatomy and Clinical Anatomy of the
Andijan State Medical Institute, Ph.D., Andijan

Shokhjakhon Abdullajon ugli Adkhamov

5th grade student of the Faculty of Pediatrics of the the
Andijan State Medical Institute, Andijan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13162507>

ARTICLE INFO

Received: 25th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Nasal index, nasal width,
nasal height, dacryal
index, dacryal height,
dacryal width.

ABSTRACT

This article describes the morphometric analysis of the nasal index and dacryal index of children of primary school age, the results of the study of growth dynamics, and the study of formation periods. It can be observed that the size of the nose index in boys and girls aged 7 to 12 years is in the case of hamerinia (platyrinia) type nose or broad nose. The dacryal index is observed to decrease in growth between the ages of 10-11 years in both genders.

МОРФОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНДЕКСА НОСА И ДАКРИАЛЬНОГО ИНДЕКСА ДЕТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Гулрух Жураевна Улугбекова

Доцент кафедры анатомии и клинической анатомии
Андижанского государственного медицинского института,
к.м.н., Узбекистан

Шохжахон Абдуллажон угли Адхамов

Студент 5 курса

Андижанского государственного медицинского института,
факультет педиатрии, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13162507>

ARTICLE INFO

Received: 25th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Носовой указатель,
ширина носа, высота
носа, дакриальный
указатель, высота
дакрила, ширина
дакрила.

ABSTRACT

В статье описаны морфометрический анализ носового индекса и дакриального индекса детей младшего школьного возраста, результаты изучения динамики роста и изучения периодов формирования. Можно заметить, что размеры индекса носа у мальчиков и девочек в возрасте от 7 до 12 лет имеют нос по типу хамериния (платириния) или широкий нос. Наблюдается снижение дакриального индекса по мере роста в возрасте 10-11 лет у обоих полов.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BURUN INDEKSI VA DAKRIAL KO'RSATKICHINING MORFOMETRIK TAHLILI



Gulrux Jo'rayevna Ulug'bekova

Andijon davlat tibbiyot instituti

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrası

dotsenti, t.f.n., Andijon, O'zbekiston

<https://orcid.org/0000-0002-1472-8188>

Shohjahon Abdullajon o'g'li Adhamov

Andijon davlat tibbiyot instituti

Pediatriya fakulteti 5-bosqich talabasi, Andijon, O'zbekiston

G-mail: shohjahonadti@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13162507>

ARTICLE INFO

Received: 25th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Burun indeksi, burun
kengligi, burun
balandligi, dakrial
ko'rsatkich, dakrial
balandlik, dakrial kenglik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar burun indeksi va dakrial ko'rsatkichining morfometrik tahlili, o'sish dinamikasi, shakllanish muddatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Burun indeksi o'lchami 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il va qizlarda hameriniya (platininiya) tipidagi burun yoki keng burunlilik holatida ekanligini kuzatish mumkin. Dakrial ko'rsatkich har ikkala jins vakillarida 10-11 yoshlar orasidagi davrda o'sishni kamayishi kuzatiladi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyati Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi (7-12 yosh) bolalar misolida burun indeksi va dakrial ko'rsatkichning morfometrik tahlili, o'sishni dinamikada kuzatish, shakllanish muddatlari, o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, jismoniy rivojlanishdan ortda qolish holatlarini erta aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotning materiallari sifatida Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi (7-12 yosh) bolalar 180 nafar jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom o'g'il va qiz bolalar olindi. Ilmiy tekshirishda olingan barcha kraniometrik ko'rsatkichlarning raqamli ma'lumotlar variatsion statistika usuli (A.M. Merkov, A.E. Polyakov, 1974) yordamida qayta ishlandi.

Burun balandligi – bu nazion (n) va nazospinal (ns) nuqtalar oralig'idagi masofa. Shtangensirkul yordamida o'lchadik.

Burun kengligi – bu burun noksimon teshigining tashqi qirg'oqlari orasidagi eng katta masofa. Burun kengligini burun qanotlarining eng kengaygan joyi tashqi chegaralaridan shtangensirkul yordamida o'lchandi.

Burun indeksi – $\frac{\text{burun kengligi}}{\text{burun balandligi}} \cdot 100$


balandligi

Dakrial kenglik – bu ikkala tomondagi dakrion (d) nuqtalari oralig'idagi masofa. Shtangensirkul yordamida o'lchadik.


Dakrial balandlik – burun belidan boshlab to dakrion (d) nuqtalarini o'zaro tutashtiruvchi chiziq markazigacha bo'lgan masofa.

Dakrial ko'rsatkich – $\frac{\text{dakrial balandlik}}{\text{dakrial kenglik}} \cdot 100$

dakrial kenglik



1-rasm. Burun kengligini o'lchash sohasi. 1-burun kengligi



2-rasm. Dakrial kenglik va dakrial balandlikni o'lchash sohasi
1-dakrial balandlik; 2 - dakrial kenglik.



Tadqiqot natijalari. Burun ko'rsatkichi quyidagicha tahlil qilinadi: 46,9 gacha – leptoriniya (tor burun); 47,0-50,9 – mezoriniya (o'rta burun); 51,0 va undan yuqori bo'lsa – xameriniya yoki platiriniya (keng burun) deyiladi.

Ayollar kallasidagi burun ko'rsatkichining o'rtacha qiymati erkaklarnikidan katta bo'ladi. Negroid va janubiy-mongoloid guruhiga mansub aholi keng burunlilik belgisi bilan ajralib turadi. (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989).

Dakrial ko'rsatkich quyidagicha tahlil qilinadi: 44,9 gacha – kichik; 45,0-53,9 – o'rtacha; 54,0 va undan ortiq bo'lsa – katta hisoblanadi. O'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 10-12 yoshgacha bo'lgan davrda 10 % ga kamaysa, qiz bolalarda esa 1,5 % ga tengdir. 14 yosh qizlarda dakrial ko'rsatkich kichik hisoblansa, 10-12 yoshlarda esa o'rtacha tipda bo'ladi. O'g'il bolalarda 11-12 yoshda o'rta tipda bo'lsa, 10 yoshda katta tipda bo'ladi.

1-jadval

7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda burun indeksi va dakrial ko'rsatkichning o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)

Bolaning yoshi	Jinsi	Kraniometrik ko'rsatkichlar	
		Burun indeksi	Dakrial ko'rsatkich
7 yosh	O'g'il	61,24	34,74
	Qiz	59,60	34,32
8 yosh	O'g'il	59,64	41,70
	Qiz	58,02	40,34
9 yosh	O'g'il	60,74	43,28
	Qiz	57,76	41,42
10 yosh	O'g'il	60,96	42,62
	Qiz	59,60	41,30
11 yosh	O'g'il	62,40	45,76
	Qiz	59,80	44,68
12 yosh	O'g'il	65,63	45,02
	Qiz	65,96	45,60

Xulosa. Burun indeksi ko'rsatkichi o'lchamini 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il va qizlarda ham xameriniya (platiriniya) tipidagi burun yoki keng burunlilik xolatinida ekanligini kuzatish mumkin. Dakrial ko'rsatkich har ikkala jins vakillarida 10-11 yoshlar orasidagi davrda o'sishni kamayishi kuzatiladi.

References:

1. Avtandilov G. G. Medical morphometry. - M.: Medicine, 1990. - 384 p. (in Russ).
2. Alekseev V.P. Osteometry. - M.: Nauka, 1966. - 250 p. (in Russ).
3. Alekseev V.P., Debets G.F. Craniometry. Methodology of anthropological studies - M.: Nauka, 1964. - 127 p. (in Russ).
4. Raimjanov R.R. Craniometric indicators of children of small school age living in Andijan district of Andijan region. / Dissertation. Andijan, 2014. (in Uzb)



5. Roginsky Ya.Ya., Levin M.G. Anthropology. - M.: Higher School, 1978. - 527 p. (in Russ).
6. Sinelnikov R.D., Sinelnikov Ya.R. Atlas anatomy human 1 volume. - M.: Medicine, 1996. - 343 p. (in Russ).
7. Tegako L.I., Salivon I.I. Fundamentals of modern anthropology. - Minsk: Universitetskoe, 1989. - p. 39-81. (in Russ).
8. Tishevsky I.A. Adult and constitutional anthropology. // Flying. posobie. - Chelyabinsk: Izd-vo YuUrGU, 2000. - 56 p. (in Russ).
9. Kharitonov V.M., Ojigova A.P., Godina E. Z. Anthropology. // Uchebnik dlya vuzov. - Vlados, 2004. - 272 c. (in Russ).
10. Shokirov H.U. Craniometric indicators of small school-age children living in Andijan city, Andijan region // Master's thesis. Andijan-2017. (in Uzb)
11. <https://www.dissercat.com>
12. <https://elibrary.ru>